

O‘ZBEK XALQ TOPISHMOQLARIDA PEYZAJ

Munis Jo‘rayeva Yunusovna,

*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va
folklori instituti katta ilmiy xodimi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)*

Annotatsiya: Mazkur maqolada poetik idrok eta bilish, anglash, chuqur fikrlash asnosida tasavvurda jonlanadigan tabiat manzaralari tasviri aks etgan o‘zbek xalq topishmoqlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: topishmoq, peyzaj, tasvir, topqirlik, manzara.

O‘zbek xalq topishmoqlari xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy janrlaridan biri bo‘lib, xalq badiiy tafakkurining nodir durdonasi sifatida uzoq yillardan buyon avloddan-avlodga o‘tib, o‘zining ta‘limiy-tarbiyaviy ahamiyatini saqlab kelmoqda. O‘zib kelayotgan yosh avlodning har tomonlama etuk bo‘lib shakllanishida xalqimizning ezgu an‘analariga asoslangan ta‘lim-tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ta‘lim-tarbiya jarayonida asrlar davomida sayqallanib kelayotgan xalq og‘zaki ijodi na‘munalaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Jumladan, topishmoqlar azaldan xalq pedagogikasining muhim tarbiyaviy vositalaridan biri sanalgan. Topishmoqlar inson umrining oxirigacha, ya‘ni dastlab oila, maktab, o‘quv dargohlaridan tortib jamoatchilik ichidan o‘rganiladigan bilimlarini takomillashtiradi, kishini aqlan chiniqtiradi, ruhiy-estetik jihatdan boyitadi.

Topishmoqlarning omma orasida yashab kelayotganligining asosiy sababi uning butun borliqni real tasvirlashidir. O‘zbeklar orasida topishmoq, topishmachoq, topmacha, topar cho‘pchak, top-top, top-top cho‘pchak, top-top matal, cho‘pchak, jumboq (jummoq, jumoq), matal, masala, chaldirmoq kabi nomlar bilan ataladigan [Husainova Z.1:111-123] folklor asarlarining eng muhim xususiyatlaridan biri muayyan narsa-hodisa, predmetni uning kelib chiqishi, vazifasi va hayoti qamrovida tavsiflashga asoslanganligi bilan belgilanadi. Topishmoqda insonga yot bo‘lgan mavhum narsa va hodisalar emas, balki kishi o‘z hayoti mobaynida ko‘rgan, ishlatgan, umuman unga tanish bo‘lgan narsa va hodisalar yashirin holda tasvirlanadi. Topishmoqqa xos bo‘lgan bu xususiyat, ya‘ni yashirib tasvirlash kishini o‘ylashga, fikrlashga, narsa-hodisalarni muqoyasa qilishga va solishtirishga undaydi. Shu jihatdan qaraganda, narsa-hodisalarning o‘ziga xos belgi-xususiyatlarini metaforik nutq orqali poetik ifoda etuvchi xalq topishmoqlarini to‘plash va o‘rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega [Husainova Z. 2:36-40].

Topishmoq janrining nomoddiy madaniy meros namunasi sifatida xalq og‘zaki badiiy ijodida asrlar davomida yaratilib, sayqallanib kelishida uning badiiyatini ta‘minlovchi poetik vositalar muhim rol o‘ynagan. Badiiylikning eng muhim bir qismi bo‘lmish peyzaj xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlari qatori topishmoqlarda ham keng qo‘llanilgan. Biroq topishmoqda peyzajning boshqa janrlardan farqli

tomonlari mavjud. Undagi peyzajni nafaqat his qilish, shu bilan birgalikda kishiga muhim asosiy vazifa – topishmoqda aks etgan manzara bilan bog‘liq uning javobini topish kerakligi yuklatiladi. Buning uchun topishmoq tabiatini yaxshi bilish lozim.

Topishmoqlarda tabiat, joy manzaralari atigi bir necha so‘zlar bilan ifodalansada, ko‘z oldimizga butun bir makon, manzara gavdalanadi: “Uzoq tog‘da o‘t yonar”. [Topishmoqlar. 3:7].

Javobi quyosh bo‘lgan bu topishmoqning har ikkala-savol va javob qismining o‘zida alohida manzara tasviri ko‘z oldimizga keladi. Baland-baland tog‘lar, ufq, quyoshning qizarib botishi arafasidagi ajib makon va zamon tasviri.

Topishmoqlarda peyzaj yaratilishi xususiyatlari turlicha. Ba‘zi bir topishmoqlarning savol qismida tabiat manzarasi aks etgan. Javob qismida esa o‘sha tasvirlangan tasvirning davomiyligi mavjud emas. Ya‘ni javobi peyzajga daxlsiz oddiy predmet. Masalan: “Dumaloq chelga mayda tol ekdim” (Soch). [Topishmoqlar. 3:30].

Topishmoqdagi manzarani xayolda jonlantiramiz. Aylana ekin maydoni, undagi mehnat jarayoni, navnihol tol novdalarining ko‘rinishini bo‘lagini ko‘rmaymiz. Kuyidagi topishmoqlarda ham shu holatni kuzatish mumkin: “Atrofi chakalakzor, O‘rtasi yorug‘ yulduz” (Ko‘z bilan kipriklar) [Topishmoqlar. 3:32].; “Uzun-uzun ko‘chalar, Ichi to‘la bachchalar” (Loviya) [Topishmoqlar. 3:105].

Yuqoridagi topishmoqlarda ham savol qismidagi peyzaj javobida davomiyligi kuzatilmaydi. Topishmoqning asosi bo‘lmish qiyoslash orqali ma‘lum bir predmetning ko‘rinishi ayni shunday manzaraga o‘xshatilgan.

Ba‘zi bir topishmoqlarda esa keltirilgan tabiat tasviri javob qismi bilan mushtarak: “Ariq bo‘yida to‘shak” (Maysa) [Topishmoqlar. 3:95].

Topishmoqda qisqagina keltirilgan tasvir uning javobini topish uchun tasavvurda keng ma‘no kasb etadigan peyzajni hosil qiladi. O‘xshatilayotgan predmet to‘shak. To‘shak mayin va yumshoq bo‘ladi. Shu bilan birgalikda uning ust qismidagi tolalar uzun emas, kaltaroq. Endi predmet joylashgan o‘ringa kelsak. To‘shak ariq bo‘yida to‘shalgan. Jumboqni echish uchun manzaraning nozik nuqtalari, yashirin ichki belgilarini anglash va topish lozim bo‘ladi. Maysa bahorda ko‘karadi. Demak ochiq bildirilmagan bo‘lsa-da, topishmoqda bahor fasli tasvirlangan. Bahor faslida ariqlar bo‘yida uzun-uzun etilgan o‘t-o‘lanlar emas, balki maysalar unib chiqadi. Ko‘rinadiki, topishmoq javobini topish jarayonida undagi peyzaj, manzara chizgilari bir-bir ko‘z oldimizda namoyon bo‘la boshlaydi. Shu bilan birgalikda, topishmoqning har ikkala – savol va javob qismi mazmunan bir-birini to‘ldirib, uyg‘unlashadi. Natijada, yaxlit bahoriy manzara tasavvurda jonlanadi. Quyidagi topishmoqlarda shunday holat aks etgan: “Eksang, bitar, Isi

hamma yoqni tutar” (Rayhon); “Daryo, O‘rtasida bo‘yro” (Qamish) [Topishmoqlar. 3:95]..

Ma‘lumki, bizning o‘lkamizda tabiat manzarasi har faslda har xil ko‘rinishda bo‘ladi. Daraxt haqidagi quyidagi topishmoqda ham yilning to‘rt fasli qiyofasini aks ettirgan peyzajni ko‘rish mumkin: “Yozda kiyinadi, Qishda echinadi” [Topishmoqlar. 3:95].

Topishmoq tabiatning bir bo‘lagi daraxt haqida. Biroq undagi harakatni bildirgan so‘zlar orqali fasllar almashinuvidagi holat ko‘z oldimizda gavdalanadi. Bahor kelib daraxtlar gullashi, issiq yozda barglari keng quloch yozishi, kunlar sovib kuz kela boshlashi bilan daraxt barglari birin-ketin to‘kilishi, qishning ayozli kunlarida daraxt shoxlarining hech qanday bargsiz qolishi manzaralari bir-bir xayolda jonlanadi.

Ko‘rinadiki, xalq og‘zaki ijodining eng ixcham janrlaridan biri topishmoqlarda ham peyzajni ko‘rish mumkin. Faqat peyzajni his qilish uchun topqirlik, zukkolik, ziyraklik nazari bilan boqish lozim. Zero, ana shu xususiyatlarsiz topishmoqdagi manzarani to‘liq tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хусаинова З. Топишмоқ терминлари / Ўзбек халқ ижоди. – Тошкент, 1967. – Б.111-123.
2. Хусаинова З. Халқ топишмоқларидаги бир бадиий восита // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1984. – 1-сон. – Б.36-40.
3. Топишмоқлар / Ўзбек халқ ижоди (тўплаб, нашрга тайёрловчи: Хусаинова З.). – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.